

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING TASAVVURI VA TAFAKKURINI KENGAYTIRISHDA BADIY ASARLARNING O‘RNI

Otabayeva Xusniya Sharofiddin qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: xusniyaotaboyeva7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinif o‘quvchilari uchun badiiy asarlar o‘qishning tasavvuri va tafakkuri rivojlanishidagi ahamiyati va o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Badiiy asarlar o‘qishning o‘quvchilar fikrlash qobiliyatini o‘stirishdagi o‘rni ham beqiyosdir.

Kalit so‘zlar. O‘quvchilar, fikrlash, badiiy asar, tafakkur, tasavvur, qobiliyat, rivojlantirish, bilim.

РОЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В РАЗВИТИИ ВООБРАЖЕНИЯ И МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Отабаева Хусния Шарафиддиновна

Студентка 3 курса направления

начального образования Ургенчского

государственного педагогического института

E-mail: xusniyaotaboyeva7@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается важность и роль чтения художественных произведений для учащихся начальных классов в развитии воображения и мышления. Роль чтения художественных произведений в развитии мыслительных способностей учащихся также неопределима.

Ключевые слова. Учащиеся, мышление, художественное произведение, воображение, способности, развитие, знания.

THE ROLE OF ARTISTIC WORKS IN EXPANDING THE IMAGINATION AND THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Otabayeva Khusniya Sharofiddin kizi

3rd year student of primary education

Urgench State Pedagogical Institute

E-mail: xusniyaotaboyeva7@gmail.com

Abstract. This article discusses the importance and role of reading literary works for elementary school students in the development of imagination and thinking. The role of reading literary works in developing students' thinking abilities is also incomparable.

Keywords. Students, thinking, work of art, thinking, imagination, ability, development, knowledge.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko‘nikmasini shakllantirish ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo‘lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o‘qib o‘rganiladi. O‘qish darsliklariga, asosan, hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o‘qitiladi. [1] Bu janrdagi asarlarni o‘rganish mobaynida o‘quvchilarning tasavvuri va tafakkuri rivojlanishi bilan birga, o‘z fikrini erkin va ravon tarzda ham ifodalay oladilar.

O‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o‘stirish orqali ta‘lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg‘otadi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o‘zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo‘lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o‘z ichiga oladi. Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda o‘z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o‘qish ko‘nikmasi o‘stiriladi, asar g‘oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o‘quvchilar nutqi rivojlantiriladi. [5] Ushbu ko‘nikmalarni o‘rganish mobaynida so‘z boyligi oshadi. Tasavvur qila olish, ulardagi sifatlarni ajrata olish kabi zaruriy sifatlarga ega bo‘lib boradilar.

Boshlang‘ich sinflarda adabiy tushunchalar va badiiy vositalar ustida ishlash o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirishga, ularda jonlantirish, o‘xshatish, mubolag‘a kabi adabiy tushunchalar yuzasidan dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

O‘qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfda o‘qishni to‘g‘ri uyushtirish uchun o‘qituvchi

badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ta’limning turli bosqichlarida o‘qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matni idrok etish va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash va bu orqali turli timsol va personajlar yaratish orqali o‘quvchilarga anglashi lozim bo‘lgan qahramonlar ko‘rinishi gavdalanitiriladi.

O‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o‘stirish orqali ta’lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg‘otadi. Asar tahlili o‘qituvchidan o‘quvchilar faoliyatini ma’lum maqsadga yo‘naltirishni taqozo qiladi. Kelajagimiz egalari bo‘lmish bugungi kun yoshlari qalbiga go‘zal fazilatlarni singdirishda adabiyot darslarida o‘rganiladigan badiiy asarlar, jumladan, inson tarbiyasi haqidagi axloqiy, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega adabiy ertaklar chinakam didaktika manbai hisoblanadi.

«Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O‘quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g‘oya, muammolarni to‘liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi» [6] Shunday ekan, ushbu vazifalar o‘quvchilarni yangi qahramonlarni, ularning xarakterlarini o‘rgatish, hayotni tasavvur qilishida, qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishlariga chin ma’noda yordamchi bo‘la oladi. O‘quvchilarni kasbga, ijodga yo‘naltirish va ular iqtidorlarini ochish, mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash kabi murakkab vazifalarni yechishda ham, ushbu darslarning ahamiyati juda katta. O‘quvchilarni badiiy adabiyotlarni tanlash, o‘qish, ularni saqlash va asar ustida ishlash kabi malakalari rivojlantiriladi.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog‘lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo‘lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo‘ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko‘rsatuvchi ijobiy xususiyatlardir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, fikr va ruhiyat yordamida undan o‘ziga xos tarzda

ta'sirlanadi, xulosalar chiqaradi [7]. Shuning uchun ham yosh o'quvchilarda ushbu ko'nikmalarni ertadan singdirib borish muhimdir.

Bola yosh bosqichlariga ko'ra turfa qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Har yoshida turlicha faoliyat ko'rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo'ladi. Beshinchi, oltinchi sinf o'quvchilari – kichik o'smir yoshidagi bolalarning o'qituvchilar va bir-birlari bilan o'zaro munosabatida ma'lum o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu davrda faollikning xususiy shakllari kuzatiladi, ularning intellekti o'zini namoyish eta boshlaydi. 11 – 13 yoshli bolalarning ko'pchiligi o'qishga beparvolik bilan qaraydilar: o'zlarini oshiqcha qiynamaydilar, uy vazifasini berilgan topshiriq darajasidagina bajaradilar, ba'zan shuni ham qilmaydilar. Ko'pincha, o'zlarini ovutadigan boshqa narsalarni o'ylab topishga moyil bo'ladilar.

O'smir yoshidagi o'quvchida boshlang'ich maktab bolasiga xos bo'lgan insonni baholashdagi biryoqlamalik kamayadi. 5 – 7-sinf o'quvchisini shaxsning axloqiy sifatlari, uning ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turtki bo'lgan omillar qiziqtiradi. Ammo o'smir hali adabiy qahramonni uning shaxsiga xos bo'lgan barcha jihatlar bilan yaxlit qabul etish va baholashga qodir emas. U ko'pincha qahramonning biror fazilatiga tayanib shaxsini baholaydi. O'rta maktabning dastlabki bosqichidagi bolalar fikrlashida anchagina sabrsizlik seziladi. Bu davrda ular darsda bajariladigan ishlarning tezligiga ehtiyoj sezadilar, oradagi bo'shliqlarni qiyinchilik bilan o'tkazadilar. Qiyin va murakkab vaziyatlarning uzoq saqlanishini yoqtirmaydilar. Shunisi xarakterliki, bu yoshdagi bolalarning ko'pchiligi berilgan topshiriqni yoki bir o'tirishda qoyillatib hal qiladilar yoki umuman bajarmaydilar [8]. Shunga ko'ra, o'quvchilar bilan ishlashda ushbu jihatlarga ham e'tibor qaratish lozim.

Bu bosqichdagi o'quvchilar bilimlarni o'ta maydalangan, tayyor holda qabul qilishni xushlamaydilar. Ayrimlar vazifani ko'chirmasdan o'zlari yechishga moyil bo'ladilar, agar topshiriqni o'zlari hal qila olishlariga ko'zlari yetsa, ustozining qo'shimcha tushuntirishlaridan qochadilar. Ba'zan ularning fikr ifodalashlarida mustaqillikni ham ilg'ash mumkin.

«Fikrlash jarayoni, – deb yozadi L. Vigotskiy, – bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola «yutib», o'zicha «hazm qila» boshlaganidan so'ng shakllanadi». Bu qarashga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita o'z yo'naltiruvchi kuchi, maqsadi,

usullariga ega bo‘lgandagina mustaqil faoliyatga aylanadi. Fikrlashning mustaqilligi uning yuqorida sanalgan shakllaridan biri sifatida kishi shaxsiyati va siyrati, ichki «men»i bilan bog‘liq [9]. Ya’ni, har bir o‘quvchining ichki dunyosi va fikrlashi ham turlichadir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasavvurini kengaytirishda, yangi voqea va hodisalarni o‘rganishda, shu bilan birga og‘zaki nutqning rivojlanishida ham badiiy asarlarning o‘rni nihoyatda kattadir. Badiiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati ham o‘ziga xos bo‘lib, o‘quvchilarda ijobiy va ijodiy fikrlash, yaxshilik qilish, yomonliklardan qochish kabi sifatlarga ham ega bo‘la boradilar. Kelgusida ham o‘quvchilarning murg‘ak qalbida insoniy fazilatlar shakllanib, ezgu ishlarni amalga oshirishida turtki bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova Sh. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga badiiy asarlarni o‘qitish orqali nutqlarini o‘stirish texnologiyalari” 389 b, 2022-y
2. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 1992
3. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. –352 b.
4. Mahmudov N., Ziyadova T.U., Ahmedova N., Ramazanova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish. –T.: 2014.–86 b.
5. Matchonov Safo, Bakiyeva Hilola, Gulyamova Xolida, Yo‘ldosheva Sharofat, Xolboyeva Gulnora Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi Chirchiq – 2020. 669 bet
6. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1992. 160 - бет.
7. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova Adabiyot o‘qitish metodikasi 2018-yil. – 352 bet. Tashkent
8. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: «O‘qituvchi», 1990. 60-bet. 72
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: «Просвещение», 1991; 90-bet.